

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining

№ BD-5110900-3.13

2018 yil 18 08



PSIXOLOGIK XIZMAT: PSIXOLOGIK KORREKSIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim
yo'nalishi: 5110900 – Pedagogika va psixologiya

TOSHKENT – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201 -yil "16" 08 -yil 08 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201 -yil "25" 08 -yil 08 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:	Nishonova Z.T. -	Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasini professori, psixologiya fanlari doktori
	Atabayeva N. -	Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasini o'qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Xolnazarova	- Guliston davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri, psixol.f.n.dotsent
Sh.Vadenova	- Toshkent pedagogika kolleji "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida tavsiya qilingan (2018-yil 28 06 -yil 11 -sonli bayonnomasi).

I.O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Psixologik xizmat va uni tashkil etish, psixologik xizmat bo'g'inlari, psixokorreksiya, psixologik xizmatni tashkil etishning shart-sharoitlari, psixologning asosiy faoliyat turlaridagisida bilimlar, ko'nikma va malakalarni berishni belgilab beradi. Ta'lim tizimida psixologik xizmat fanining ro'li beqiyos. Ta'lim tizimida vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun, o'quvchilarga psixologik yordam berish uchun psixokorreksiya metodlaridan xabardor bo'lishi zarur. Shuningdek, psixologik xizmat fanidan bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur.

Psixologik xizmat fani asosiy umumkasbiy fan hisoblanib, 6-7 semestrlarda o'qitiladi. Psixologik xizmat gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (falsafa, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik, sotsiologiya va h.k.), matematika va tabiiy-ilmiy (informatika va axborot texnologiyalari, yosh fiziologiyasi va gigienasi va h.k.), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, psixologiya tarixi, yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, psixodiagnostika, eksperimental psixologiya, psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi va h.k.), ixtisoslik (pedagogik valeologiya, kasb psixologiyasi va h.k.) fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, psixolog-talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga zamin hozirlaydi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda psixologik xizmat predmeti, psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari, maktabdagi psixologik xizmat mahsuldorligining sharoitlari, bola taraqqiyoti uchun qulay psixologik iqlim yaratish, psixologning diagnostik, korreksion ishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga psixologning maktabgacha tarbiya muassasasidagi ishi, maktabga qabul qilinayotgan va qabul qilingan bolalar bilan olib boriladigan psixologik ishlar, mehribonlik uyalaridagi psixologning ishi, psixologning xalq ta'limi tizimida ish olib borishi, psixologning o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

"Psixologik xizmat asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish natijasida bakalavr:

- - psixologik xizmat predmeti, psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari, maktabdagi psixologik xizmat mahsuldorligining sharoitlari, bola taraqqiyoti uchun qulay psixologik iqlim yaratish, psixologning diagnostik korreksion ishi to'g'risida bilimlarga;

- - talaba amaliy psixolog mutaxassis va shaxs sifatida, maktabgacha tarbiya muassasasidagi psixolog ishi, birinchi sinfga kelayotgan bolalar bilan, umumta'lim maktabida, xususiy maktabda olib boriladigan ishlar, mehribonlik uylaridagi, ta'lim departamentidagi psixolog ishi, psixologning o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari bo'yicha ko'nikma;

- - talaba maktabgacha tarbiya muassasasida olib boriladigan rivojlantiruvchi mashqlar, bolalarni o'qishga tayyorlash mashqlari, bolalarning maktabda o'qishga

tayyorligini aniqlash dasturi, o'smirlar va ilk o'spirinlar uchun o'quv faoliyatini individual uslub, maslahat jarayonini tashkil etish usullari, psixologik xizmatda fan va amaliyot birligi, maktab psixologi barcha ish turlarini bilishi, bola uchun qulay iqlim yaratish, maktab psixologining kasbga tayyorgarligi, psixologning maktab jamoasi bilan hamkorligi, o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishga doir *malakasiga ega bo'lishi kerak*;

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Psixologik xizmat faning predmeti

1-Mavzu: Psixologik xizmatni tashkil etishning umumiy mezonlari

Psixologik xizmatni yuzaga kelish tarixi va predmeti. Ta'lim sohasida psixologik xizmatni tashkil etishning tamoyillari va strukturasi. Psixologik xizmatni maqsad va vazifalari. Psixologik xizmat nazariyasi va amaliyotidagi zamonaviy tendensiyalar va muammolar.

2-Mavzu: Ta'lim sohasidagi psixologning burchi va majburiyatlari; ishning axloqiy tamoyillari

Ta'lim sohasida psixolog faoliyatining huquqiy asoslari. Amaliyotchi psixologning axloqiy kasbiy faoliyati. Amaliy psixologning axloqiy kasbiy faoliyati. Psixologning ijtimoiy roli, kasbiy pozitsiyasi va statusi. Amaliy psixolog shaxsiga qo'yiladigan talablar. Psixologning amaliy psixologik xizmat vakili sifatidagi kasbiy shakllanishi sosida yotuvchi asosiy tamoyillar.

3-Mavzu: Psixologik xizmat haqida nizom

Psixologik xizmat haqida nizom psixolog faoliyatining asosiy hujjati sifatida. Rossiyadagi psixologik xizmat haqida nizom. O'zbekistonda psixologik xizmat haqida nizomning qabul qilinishi. Nizomning asosiy bo'limlari. Nizomga kiritilgan o'zgartirishlar

4-Mavzu: Ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining me'yoriy hujjatlari

Pedagog psixolog faoliyatini reglamentini aniqlab beruvchi, mutaxassislikka qo'yiladigan talablar. Nuquq va majburiyatlarning mezonlarini baholovchi mavjud Qaror, Farmoyishlar, Qonunlar, instruktiv-metodik xatlar va O'zR ta'lim vazirligining, mahalliy organlarning boshqa me'yoriy hujjatlari. Mutaxassislik yo'riqnomasi. Istiqbol va joriy ish rejalari. Ta'lim sohasidagi psixologik xizmat me'yoriy hujjatlari

5-Mavzu: Psixologik xizmat mahsuldorligining sharoitlari

Individual yondashuv. Bola uchun qulay iqlim yaratish. Bolaning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish.

6-Mavzu: Amaliy psixolog faoliyatining asosiy ko'rinishlari

Psixologik tashviqot, psixologik profilaktika, Psixologik-pedagogik konsilium. Psixologik maslahat, uning turlari. Psixodiagnostika. Psixokorreksion ismi amalga oshirishga qo'yiladigan talablar

7-Mavzu: Psixosotsial salomatlik

Psixosotsial salomatlik, asosiy ko'rsatkichlar va baholash mezonlari: psixologik salomatlik, uning strukturasi va buzilish me'yorlari. Psixologik

salomatlikka xavf soluvchi omillar. Shaxs psixologik salomatligining psixologik pedagogik sharoitlari.

2-Modul. Psixokorreksiyaning dolzarb masalalari

8-Mavzu: Psixologik korreksiyaning maqsad, vazifalari

Psixologik korreksiyaning tamoyillari va ularning amaliy psixologiya strukturadagi o'rni: psixologik korreksiya haqida tushuncha. Korreksion faoliyat shakl va metodlari tanlashda yosh xususiyatlarini inobatga olish.

9-Mavzu: Psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlari

Psixodinamik yo'nalish, A.Adlerning analitik individual psixokorreksiyasi, K.Rodjersning mijoz-markazlashgan yondashuvi, ekzistensial yo'nalish, xulq-atvor yo'nalishi, kognitiv yo'nalish va b.

10-Mavzu: Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish

Psixokorreksion faoliyat tamoyillari. Diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyili. Taraqqiyotning normaligi tamoyili. Korreksiyaning "yuqoridan pastga" tamoyili. Korreksiyaning "pastdan yuqoriga" tamoyili. Psixik faoliyat taraqqiyotining tizimlilik tamoyili. Korreksiyaning faoliyatli tamoyili.

11-Mavzu: Psixokorreksion dastur tuzilishiga qo'yiladigan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Psixokorreksion dastur tuzilishning asosiy tamoyillari. Korreksion, profilaktik va rivojlantiruvchi topshiriqlarning tizimlilik tamoyili. Korreksiya va diagnostikaning birligi tamoyili. Kauzal tipdagi korreksiyaning qarama-qarshilik tamoyili. Korreksiyaning faoliyatli tamoyili. Mijozning yosh-psixologik, individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili. Psixologik ta'sir metodlarining komplekslilik tamoyili. Korreksion dasturda ijtimoiy muhitdagi yaqin kishilarning faol ishtirokini ta'minlash tamoyili. Psixik jarayonlarning notekislik darajasi tamoyili. Ta'limni dasturlashtirish tamoyili. Yoshga oid qiyinchiliklar tamoyili. Ma'lumotlarning hajmi va murakkablik darajasini inobatga olish tamoyili. Ma'lumotlarning emotsional qiyinlik darajasini inobatga olish tamoyili.

12-Mavzu: Korreksion tadbirlar olib boradigan psixologga qo'yiladigan talablar Psixokorreksiyaning texnologik asoslari, o'zaro ta'sir usullari, direktiva, paratexnologiya

Psixolog-konsultant shaxsiga qo'yiladigan talablar. Psixokorreksion tadbirlarni amalga oshiradigan psixologlarga qo'yiladigan talablar. Korreksion ta'sirga kasbiy tayyorgarlikning uch komponentli strukturasi. Verbal texnologiya, emotsional texnologiya. Texnologik ta'sir: direktiva va ularning turli tumanligi. Interpretatsiya texnologiyasi.

12-Mavzu: Psixokorreksiya metodlari

O'yint terapiyasi, ertak terapiyasi, art terapiya, kollaj, biblioterapiya, psixogimnastika, xulq-atvor psixokorreksiya metodlari, psixodrama.

13-Mavzu: Individual va guruh psixokorreksiya

Guruh psixologik maslahatning o'ziga xos jihatlari. O'zaro ta'sir jarayonida konsultantning funksiyasi, assistentning funksiyasi. Guruh psixologik

maslahatning samaradorligi va uning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar. Psixolog-konsultantlarni tayyorlash jarayonida guruh psixologik maslahatni qo'llash.

14-Mavzu: Ontogenetik taraqqiyot inqirozlari psixokorreksiya va psixoprofilaktikasi

Turli yosh davrlarida inqirozlar psixokorreksiya va psixoprofilaktikasi. Maktabgacha tarbiya yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari. Kichik maktab yoshida psixologik korreksiyaning asosiy vazifalari va ularni amalga oshirish shakllari.

15-Mavzu: Boshlang'ich sinflarda korreksion ishning o'ziga xosligi
Maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi va maktabga motivatsion tayyorgarlikni korreksiya qilish: Bolani maktabga moslashishini o'ziga xos xususiyati. Maktabga psixologik moslashish shart-sharoitlari. Maktabda o'zlashtirishning psixologik omillari, kichik maktab yoshidagi o'zlashtirishni bartaraf etish yo'llari.

16-Mavzu: O'smirlar va ilk o'spirinlik davrida olib boriladigan korreksion faoliyatning o'ziga xosligi

O'smirlar davridagi psixologik inqiroz. Ta'lim motivatsiyasining pasayishi. Korreksion faoliyatning dolzarb muammolarini o'rganish. Aksentuatizatsiyalangan o'smirlar psixokorreksiya. Ilk o'spirinlik davrida psixoprofilaktika va psixokorreksiya bosqichlari.

17-Mavzu: Bilish jarayonlari korreksiya va taraqqiyoti
Bilish jarayonlari klassifikatsiyasi. Bilish jarayonlari-ni korreksiya qilish va rivojlantirish tamoyillari. Kichik maktab yoshidagi diqqatni rivojlantirish. Diqqat konsentratsiyasini rivojlantirish. Diqqat hajmi va qisqa muddatli xotirani rivojlantirish. Diqqatni taqsimlashni o'rganish. Xotiraning rivojlanishi. Mantiqiy xotirani rivojlantirish metodikasi. Tafakkur rivojlanishi. Xayolning rivojlanishi. Nutq rivojlanishini o'rganish.

18-Mavzu: Emotsional sohani korreksiya qilish va rivojlantirish
Shaxs emotsional sohasi va uning rivojlanishi. Shaxs emotsional sohasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Kichik maktab yoshida emotsional sohaning buzilishi. Kichik maktab yoshida emotsional sohani rivojlantirish va korreksiya qilish.

19-Mavzu: Shaxslararo munosabatlarni korreksiya qilish
Shaxslararo munosabatlar va uning kichik maktab yoshida va o'smirlar davrida rivojlanishi. Kichik maktab yoshida shaxslararo munosabatlarni korreksiya qilish. O'smirlar va yuqori sinf o'quvchilari bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar.

20-Mavzu: Kasbiy o'zlikni anglash sohasini korreksiya qilish
Kasbiy o'zlikni anglash sohasini korreksiya qilish. Kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish psixolog ishlari muayyan qismi sifatida. Kasbiy o'zlikni anglashga tayyorlikni shakllantirish. Kasb tanlashga tayyorlik. O'quvchining layoqatini,

yuqori sinf o'quvchilari kasbiy qiziqishlarini diagnostika qilish. Yuqori sinflar bilan olib boriladigan kasbga yo'naltiruvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlar

21-Mavzu: Ota-ona va o'qituvchilar bilan olib boriladigan korreksion-profilaktik ishlar

Maslahat jarayonida ota-ona va o'qituvchilar bilan ishlashning o'ziga xos jihatlari. Ota-ona va o'qituvchilarning bola bilan to'g'ri muloqot uslubini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Ota-onalar guruhi. Ota-ona va bola orasidagi samarali muloqotning o'ziga xos jihatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish.

22-Mavzu: Etim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning umumiy psixologik tavsifi

Mehribonlik uylari sharoitida bolalarni psixosotsial qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos jihatlari: bolalar uyi va maktab-internat tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mavqei va ularning psixologik xususiyatlari.

23-Mavzu: Internat tarbiyalanuvchilarining adaptatsiyasiga ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish

SOS tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar

Jamoadagi psixologik iqlim shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida. Bolalarning jamiyatga moslashuvdagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llari.

IV. Seminar va amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabarlarda ijtimoiy psixologiyaga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

1. Psixologik xizmatning xorijda va respublikamizda rivojlanishi.
2. Ta'limda psixologik xizmatning maqsad va vazifalari.
3. Psixologik xizmat haqida nizom. Ta'lim sohasidagi psixolog faoliyatining me'yoriy hujjatlari.
4. Amaliy psixolog faoliyatining asosiy ko'rinishlari
5. Psixodiagnostika ta'lim psixologi amaliy faoliyatining asosi sifatida
6. Psixokorreksiya ta'lim muassasidagi psixolog faoliyatining yo'nalishi sifatida.
7. Psixokorreksion dastur tuzilishiga qo'yiladigan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
8. Psixologik korreksiyaning tamoyillari va uni tashkil etish.
9. Xorijiy psixokorreksion amaliyotda asosiy yo'nalishlar.
10. Ta'lim muassasasi psixologi ishlari mazmuni va shakllari.
11. Psixokorreksiyaning asosiy metodlari.
12. Individual psixokorreksiya.
13. Guruh psixokorreksiya.
14. Oilaviy munosabatlar psixokorreksiya.
15. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixokorreksiya va psixoprofilaktikasi.

16. Boshlang'ich sinflarda korreksion ishning o'ziga xosligi.
 17. O'smirlar davrida olib boriladigan korreksion faoliyatning o'ziga xosligi
 18. Ilk o'spirinlik davrida olib boriladigan korreksion faoliyatning o'ziga xosligi.
 19. Bilish jarayonlari korreksiyasi va taraqqiyoti
 20. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi korreksion ishlar.
- Amaliy mashg'ulotlarda talabalar psixologik xizmat ko'rsatish, psixokorreksiya metodlarini o'tkazish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni hosil qiladilar.
1. Psixokorreksiyaning asosiy nazariy yo'nalishlari.
 2. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar. bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirish. Emotsional soha psixokorreksiya: bolalar qo'rquvi va xavotirlanishi psixokorreksiya: bolalar qo'rquvi va xavotirlanishi psixokorreksiya.
 3. Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar: bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirish, Emotsional soha psixokorreksiya. Giperaktiv bolalar bilan ishlash. Shaxslararo munosabatlar psixokorreksiya.
 4. O'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar: o'smir va ilk o'spirinlar bilan olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishlari. Aktsentuasialashgan o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar. O'smirlarning o'qituvchilari va ota-onalari bilan ishlash. Yo'lgizlik hissini boshdan kechirayotgan o'smirlar bilan ishlash.
 5. Ilk o'spirinlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar: Altiuzmni rivojlantirish bo'yicha psixokorreksion ishlar. Hasdgo'y ilk o'spirinlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar.
 6. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi korreksion ishlar.
 7. Og'ir kasallikka chalingan va hayot bilan vidolashayotgan shaxslar bilan ishlashning o'ziga xosligi.

Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

1. Kalendar, joriy, istiqbol rejalarni tuzish.
2. Giperaktiv bolalar uchun korreksion dastur tuzish.
3. Tortinchoq bolalar uchun korreksion dastur tuzish.
4. Autik bolalar uchun korreksion dastur tuzish.
5. Xavotirlanuvchan bolalar uchun korreksion dastur tuzish.
6. Agressiv bolalar uchun korreksion dastur tuzish.
7. Komp'yuterga tobe bolalar uchun korreksion dastur tuzish.
8. Altiuzmni rivojlantirish bo'yicha psixokorreksion dastur tuzish.
9. Havas hissini rivojlantirish bo'yicha korreksion dastur tuzish.
10. Aybdorlik hissini bartaraf etish uchun psixokorreksion dastur tuzish

V. Kurs ishi (loyihasi) tarkibi, ularga qo'yiladigan talablar.

"Psixologik xizmat" fanidan kurs loyixalarining mavzulari

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalari shakllanishining o'ziga xosligi.
3. Ilk bolalik davrida aqliy taraqqiyotning o'ziga xosligi.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixik rivojlanishiga o'yinning psixologik ta'siri.
5. Bolaning jinsiy identifikatsiyasida ota-onaning roli.
6. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda vaqt va fazoviy idrokni shakllantirish.
7. Tarbiyasi qiyinlikni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishda psixologning roli.
8. O'qituvchi - o'quvchi hamkorligi samaradorligining psixologik jixatlari.
9. Maktab dezadaptatsiyasi va uni bartaraf etish yo'llari
10. Past o'zlashiruvchi o'quvchilar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning o'ziga xosligi.
11. Kichik maktab yoshida o'zini-o'zi anglashga ta'sir etuvchi psixologik omillar.
12. Tortinchoq o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarni tashkil qilishning o'ziga xosligi.
13. Psixik taraqqiyotda orqada qolgan bolalarga va ota-onalarga psixologik yordam berish masalari.
14. Jismoniy nuqsoni bor bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari.
15. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda munosabatlarga kirishidagi qiyinchiliklar va uni bartaraf etish yo'llari.
16. O'smirlarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari.
17. Pedagogik qarovsiz bolalar bilan olib boriladigan ishlarning psixologik xususiyatlari.
18. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishning psixologik o'ziga xosligi.
19. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi.
20. Katta o'smirlarda "Men" obrazining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.
21. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotining o'ziga xosligi.
22. O'smir qizlarda stress holatining yosh psixologik jihatlarini
23. Emotsional stressga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik ta'sirlar.
24. Informatson stressning talabalar o'quv faoliyatiga ta'siri.
25. O'smirlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali stressga barqarorlikni oshirish
26. Talabaning stressga barqarorligi shaxs psixologik xususiyatlariga bog'liqligi.

27. Talabalarda stressga barqarorlikni shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish.
28. Talabalarda frustratsion tolerantlikni rivojlantirishning psixologik omillari.
29. O'smiring o'ziga adekvat baho berishini shakllantirish orqali stressga barqarorlikni oshirish.
30. Bolalarda altruizm hissini shakllantirishning psixologik omillari.
31. Iqtidorli bolalarda intellektual qobiliyatlarini shakllanishi.
32. Kichik maktab yoshida iqtidorli bolalarning psixologik xususiyatlari.
33. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emosional boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari
34. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishda milliy o'yinlarning ahamiyati.
35. Bolalarda agressiv xulq-atvor modeli shakllanishida oilaning roli.
36. Agressiv bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning o'ziga xosligi.
37. Deprivatsiyaning bola psixik taraqqiyotiga ta'siri masalalari.
38. Bolalardagi qutqaruv hissini bartaraf etishda ertakterapiyasidan foydalanishning o'ziga xosligi.
39. Maktabgacha yoshdagi bolada ijobiy "Men" obrazining shakllanishida oilaning o'rni.
40. Bolaning maktabga moslasuvining ahamiyati.
41. Yaqin kishisini yo'qotgan bolalar bilan olib boriladigan psixoterapevtik ishlarning o'ziga xosligi.
42. Kichik maktab yoshidagi bolalarda irodaviy xususiyatlarni shakllantirishning psixologik o'ziga xosligi.
43. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilim va baho olishga intilish motivlarining o'zaro munosabatlari.
44. Oiladagi shaxslararo munosabatlarni bola taraqqiyotiga psixik ta'siri.
45. O'smirlik yoshidagi o'g'il va qizlarning psixik taraqqiyotidagi o'zgarishlarning o'zini-o'zi anglashga ta'siri xususiyatlari.
46. Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishish kelib chiqishiga oilaviy tarbiyaning ta'siri.
47. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqotchanligini rivojlantirishda oilaning roli.
48. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqining o'ziga xos xususiyatlari
49. Normal va ruhiy rivojlanishi sustlashgan boshlang'ich sinf o'quvchilar xotirasining o'ziga xos psixologik xususiyatlari.
50. Boshlang'ich sinf o'zlashtirmovchi o'quvchilarning o'z-o'ziga baho berishi va o'z-o'zini boshqarish xususiyatlariga ta'sir etuvchi psixologik omillar
51. Kasbiy shakllanishning psixologik xususiyatlari.
52. Yuksak xislar shakllanishining psixologik xususiyatlari.
53. O'smirlarda motivatsion - ehtiyojlar soxasi shakllanishining psixologik xususiyatlari.

54. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv motivlarining shakllanishi.
55. O'smirlarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari.
56. Pedagogik qarovsiz bolalar bilan olib boriladigan ishlarning psixologik xususiyatlari.
57. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy persepiyaning psixologik o'ziga xosligi.
58. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi.
59. Katta o'smirlarda "Men" obrazining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.
60. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotining o'ziga xosligi.
61. O'smir qizlarda stress holatining yosh psixologik jihatlari
62. Emosional stressga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik ta'sirlar.
63. Informatsion stressning talabalar o'quv faoliyatiga ta'siri.
64. O'smirlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali stressga barqarorlikni oshirish

Kurs ishi tuzilishi va rasmiylashtirish

Titul varag'i: U quyidagicha talablar bilan rasmiylashtiriladi:

- yuqorida -o'quv yurti nomi va kafedra nomi.
- varaq o'rtasida -talaba familiyasi, ismi, sharifi, shuningdek fakultet hamda kursi:

- pastga- kurs ishi mavzusi yoziladi:

- pastdan o'ng tomonga- ilmiy raxbarning familiyasi, ismi, sharifi;
- eng pastga – kurs ishi yozilgan shahar va yil ko'rsatiladi.

Kurs ishinin mazmuni

Mundarija

Kurs ishi rejasi. Unda kurs ishinin bo'limi va betlari aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Kirish. Bu qism tadqiqot mavzusi dolzarbligini asoslashi kerak, bunda tadqiqotning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalari, ilmiy faraz, metodlar, tadqiqotning metodologik asosi, nazariy ahamiyati aks ettiriladi.

Kurs ishinin asosiy qismi. O'ziga bir necha bo'limlarni o'z ichiga oladi. Nazariy qismda tadqiqot muammosininining fundamental ilmiy asoslari yoritib beriladi, adabiyotlarning tanqidiy analizi keltiriladi, avtorning shaxsiy pozitsiyasi ko'rsatiladi. Eksperimental qismda mustaqil olib borilgan tadqiqot metodlari natijalari aks etadi. Eksperimental tadqiqot natijalari turli grafik, jadvallarda aks ettiriladi.

Kurs ishini rasmiylashtirish

Kurs ishinin matni kompyuterda terilgan, 25-30 varaqni tashkil etilishi Times New Roman, 14-shriftida yozilishi, A4 formatdagi standart qog'ozning 1 tarafiga 1,5 intervalda terilishi kerak. Chapdan-3sm, o'ng tarafdin-1,5 sm, tepadan-2,5sm, pastdan-2sm bo'lishi kerak.

Xulosa: Unda ishning natijasi avtor kelgan xulosasi, uning amaliy axamiyati va mavzuning kelgusi istiqbollari ko'rsatiladi. Xulosaga qo'yiladigan talablar;

- uning qisqaligi unda kirish qismi mazmunini to'liq qaytarmaslik kerak. Umuman olganda xulosada quyidagi savollarga javob bo'lishi kerak.
- nima uchun talaba mazkur tadqiqotni o'rgandi.
- nimalar qilindi?
- avtor qanday xulosalarga keldi?
- Xulosalar va olingan natijalarga asoslangan holda tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar. avtorning familiyasi yoki adabiyot nomining (agar avtor familiyasi, bo'lmasa) alfavit tartibi bo'yicha tuzilishi kerak.

Manbalarni rasmiylashtirishda avtorning familiyasi va initials, ishning nomi, nashriyoti nomi, yili umumiy betlari soni ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlarni rasmiylashtirishda eng avvalo, qonuniy-me'yoriy xujjatlar, farmonlar, buyruqlar, Prezident asarlari, muammog'na oid fundamental-nazariy adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari, internet saytlari keltiriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati 15 tadan kam bo'lmali kerak.

Ilova. Kurs ishi yozishda talab etilgan hajmdan tashqari yana bir qancha ilovalar keltiriladi. Shuning uchun ular oxiriga adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtiriladi. Har bir ilova nomlanishi va tepadagi o'ng burchakda «ilova» va tartib raqami ko'rsatiladi. Masalan «Ilova 1», «Ilova 2» shaklida bo'lishi mumkin.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyiha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- masofaviy ta'lim.

Talabaga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limni mavzulari:

1. Arterteriya.
2. Logoterapiya.
3. Psixonaliz
4. Ijtimoiy kognitiv nazariya
5. Ota-onalarda kongruentlikni shakllantirish
6. Bolaga nisbatan qattiqqo'lik munosabatida bo'lish moslasha olmaslik olmaslik omili sifatida

7. Bolalarda va o'smirlarda psixologik jarohatlarni davolash
8. Chapaqaylik maktabga moslasha olmaslik omili sifatida
9. Ish boshlashdan oldin konsultantlar oldida vujudga keladigan muammolar
10. Terapevtik o'zaro ta'sirlar muhitini yaratish
11. Hissiy bo'shashish
12. Biblioterapiya.
13. Musiqa terapiya
14. Raqs terapiyasi
15. Proyektiv rasmlar.
16. Hikoya tuzish
17. Ertak terapiyasi
18. Qo'g'irchoq terapiya
19. Psixogimnastika.
20. "Jeton" metodi
21. Morita metodi
22. Xolding
23. Psixodramma.
24. Imersion metodlar
25. Sistematik desensibilizatsiya va sensibilizatsiya metodlari
26. Imago metod
27. Individual psixokorreksiya
28. Guruhii psixokorreksiya
29. Korreksion guruh turlari
30. Guruhii bahs guruhii metod sifatida
31. Oilaviy munosabatlar psixokorreksiyasi
32. Ota-ona va farzand orasidagi munosabatlar psixokorreksiyasi
33. O'yin terapiyasi
34. Gipnoterapiya
35. Giperektivlik psixokorreksiyasi
36. Xotirani rivojlantirish
37. Tafakkur opeartsiyaarini rivojlantirish
38. Ijodiy xayolni rivojlantirish
39. Idrokni rivojlantirish
40. O'zlashtira olmaslik psixokorreksiyasi
41. Tarbiyasi qiyin bolalar psixokorreksiyasi
42. Agressivlik psixokorreksiyasi
43. Hasad psixokorreksiyasi
44. Havasni rivojlantirish
45. Tortinchoqlik psixokorreksiyasi

VII. Asosiy va qo'shimha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar

1. Дубровина И.В. Готовность к школе. – М.: Речь 2001.

2. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. –T.Fan va texnologiyalar markazi. 2006.
3. Тетушкина М.К. Психологическая помощь и консультирование в практической психологии. – М.: Владост 2001.
4. Потапова А.В. Нартова – Бочавер С.К. Детская психологическая служба. – М.: Речь 2001
5. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbaeva, M.V.Sulaymonov Psixologik xizmat. 2014.
- Qo'shimcha adabiyotlar**
6. Мирзиёев Ш.М. Танкидий тахлил катыйй тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик хар бир рахбар фаолиятини кундалик кондаси бўлиши керак Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истикболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи //Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ №11.
7. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” 2016.
8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга кўрамиз. “Ўзбекистон” 2017
9. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракат стратегияси. 7 январ 2017 йил.
10. Psychology as the Behaviorist Views it John B. Watson (1913) First published in Psychological Review, 20, 158-177.
11. Мартинсковой Т.Д. “Детская практическая психология” Под.ред.-М., “Изд-во” 2000.-255с.

Internet saytlari

13. www.tdpu.uz
14. www.pedagog.uz
15. www.ziyounet.uz
16. www.edu.uz

Izoh: qo'shimcha adabiyotlar boshqa axborot-resurs markazlarida mavjud